

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

ALBERT KAMYUNING "BEGONA" ASARIDA

HAYOTNING MA'NOSIZLIGI VA INSONNING JAMIYATDAGI O'RNI

*Eshtursunova Nozikoy Alisher qizi,*

*Ibragimova Sevinch Bahriddin qizi,*

*Qahharova Marjona*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*

*2-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: O'sarova Laylo Ibragimovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Albert Kamyu, uning hayoti va ijodi, qolaversa "Begona" asaridagi absurdizm falsafasi va bosh qahramonning his-tuyg'ulari hamda u orqali jamiyat qadriyatlariga befarq bir inson sifatida tasvirlanishi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Albert Kamyu, absurdizm, hayotning manosizligi, o'zim va qismat, sud jarayoni, hissiy betaraflik.

XX asr jahon adabiyotining yorqin vakillaridan biri Albert Kamyu bo'lib, fransuz falsafasi va adabiyotida muhim o'rin tutadi. Kamyu o'z asarlari orqali insonning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini va qiyinchiliklarini tadqiq etish hamda ekzistensializm va absurdizm mavzularini tasvirlab beradi. Uning ijodiy faoliyati 1937-yildan boshlangan. "Begona" qissasi "Sizif haqida asotir" falsafasi ocherki, "Anglashilmovchilik" va "Kaligula" dramalari inson hayotining ma'nosi to'g'risida o'ylardan iborat. Albert asarlari adabiyot va falsafani yana ham bir biriga yaqinlashtirgan. Kamyu 1957-yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan va bu mukofotga "zamonaviy imonning vijdoni va erkinligi masalalarini mahorat bilan yoritgani uchun loyiq topilgan.

Kamyuning adabiy merosi bugungi kunda ham insoniyatni dolzarb masalalarni yoritishda va falsafiy muhokamalarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Uning asarlari kitobxonlarni hayot ma'nosini o'zlari izlashga undash orqali zamonaviy jamiyatning savollarga javob izlashga yordam beradi.

Adib 1942-yilda chop etilgan "Begona" qissasi bilan katta shuhrat qozondi. Ushbu asar absurdlik tushunchasini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda bosh qahramon Merso jamiyatning odatdagi meyorlariga qarshi chiqadi va insonning hayotdagi ma'nosizligini tasvirlaydi.

Asarning bosh qahramoni- Marsel Merso, oddiy ofis xodimi, oddiy hayot kechiradi. U o'z his tuyg'ulari va jamiyat odatlariga nisbatan befarq. Romanning boshida Merso onasining o'zim haqidagi habarini oladi va dafn marosimiga qatnashadi. Ammo u qayg'u ko'rsatmaydi, hatto bu voqea uni chuqur o'ylantirmaydi.

Syujet nihoyatda qisqa. Merso haqidagi ushbu qissa ikki qisman iborat:birinchi qismda Merso otasining o'limi haqida xabar topadi va dafn marosimiga borish majburiymikan,deya o'ylay boshlaydi. Ichidan uzoqqa ,tinch hayotidan boshqa yoqqa ketgisi kelmaydi. Lekin baribir boradi.Onasining muzlagan tanasini oldida hayot tashvishlarini yani turmushning boshqa mayda chuyda narsalarni haqida o'ylaydi.Tongda barcha rasmiy ishlarni tugatgach, kechani Mari ismi bir qiz bilan o'tkazadi.Oraga Raymon qo'shiladi. Keyin ularni dengiz bo'yiga dam olishga taklif qiladi. Yo'ldan ular bir gala arablar tomonidan taqib qilinyotganini payqab qolishadi. Sohilda ular orasida kelishmovchiliklar bo'ladi va Merso arablardan birini otib qo'yadi. Ikkinchidan qism esa qotilligi uchun hibsga olingan Mersoning 11 oy qamoqda yotishi, Sud ishi,muqarrar o'limi jazosi, kameradagi iqrorlaridan iborat.Ammo uning Sud jarayonida asosiy e'tibor uning jinoyatidan ko'ra hissing sovuqligiga va jamiyat qadriyatlariga zid xatti-harakatlariga yaratiladi.

Merso qamoqxonada yotibo'zining kim bo'lganini va qanday yashaganini ko'z oldiga keltirar ekan, birinchi qismidagi voqealar yana boshqattan, anglangan holatda ko'z oldidan o'tadi. Shunda birinchi qismdagi o'zining nomi bilan harakat qilgan kimsan mutlaqo begona bo'lib ko'rinadi.

Birinchi qism absurd sharoit, absurd odam, ikkinchidan qism esa absurdni anglashga, unga qarshi kurashishga intilayogan inson haqida. U o'zining kimligi, hayotning nimaligini anglaydi, boshidan kechirgan voqealarning bemaniligini his etadi.Bu o'zining axloqiy qarashlariga ko'ra dunyo adabiyotida yangi obraz, falsafiy ramz edi.

Asarda favqulodda ro'y beruvchi qarorlar yo'q bo'lsada, faylasuf Kamyuning g'oyasi juda chuqur.Bizga hozir asar qahramonining har qanday narsaga munosabati aniqrog'i, har qanday narsaga munosabatsizligi muhimdir.

U shunchalik etiborsizki, onasining o'lganligidan yig'lamaydi, qotil bo'lganligidan eti junjikmaydi, vahima bosmaydi, o'limga hukm qilinishi tayin bo'lib turgan Sud jarayoni bosh qahramonga zerikarli va uzoqqa cho'zilgandek bo'ladi. Biroq, umuman e'tibor bermaydi.

Asarunchalik katta emas, bir necha soatlarda o'qib chiqsa bo'ladi Lekin asarda uning hajmiga nisbatan ancha katta ma'no yotadi.

Merso onasining o'lganligi uchun yig'lamagani uchun odamlar uni tshbag'ir, bemehr inson deb qabul qolishadi. U shunchaki odamlarning fikri uchungina o'zini chuqur qayg'uli holatda ko'rsata olmaydi. Uning uchun insonlar tomonidan o'ylab chiqilgan qadriyatlar ahamiyatsiz. Ammo bular uning hissis ekanligini ko'rsatmaydi.Eng qizig'i sudda uni odam o'ldirganligi uchun emas,onasining vafotida yig'lamaganligi uchun Sud qolishadi. "Yashayabman, demak aybdorman"-deydi.

Albert Kamyu bu asarida u yoki bu insonni shunchaki mavjudligi uchun, qanday inson bo'lsa shunday holida qabul qilishning ahamiyati haqida tushuntiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Ekzistensializm:Albert Kamyu. /Muhammadjon Holbekov ,"Jahon adabiyoti"jurnali,2013.11 soni
- 2.Solijon Yo'ldosh. "Sizif va absurd"
- 3.To'ychiyeva Shahnoza "Jahon Adabiyoti" jurnali, 2001.